

# Surxondaryoda o'tkazilayotgan tibbiy sayyor qabul bugun ham davom etadi



Surxondaryoda o'tkazilayotgan tibbiy sayyor qabul bugun ham davom etadi

Kecha Termiz shahridagi "Amudaryo" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida boshlangan tibbiy sayyor qabul bugun, 18 apreľ kuni soat 8:00dan boshlab yana davom etadi.

Viloyat hokimligi Axborot xizmatining ma'lum qilishicha, tibbiy sayyor qabulning birinchi kunida Termiz shahri va tumanlardan kelgan 3877 nafar fuqaro ko'rikdan o'tkazilgan.

Ularning 3827 nafarida turli darajadagi kasalliklar aniqlanib, 1289 nafari ambulator sharoitda, 1302 nafari tumanda, 1029 nafari esa viloyatda statsionar tartibda, 207 nafari respublika miqyosida davolanishga tavsiya etilgan. Shuningdek, 100 nafarga yaqin og'ir bemorda bepul murakkab operatsiyalar amalga oshirilgan.

Sayyor qabulda Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov va Sog'liqni saqlash vaziri Behzod Musaev fuqarolarning murojaatlarini tinglagan.

Image not found or type unknown





Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

